LISONIY SHAXS TUSHUNCHASI

Murodova Umida Abdulnabiyevna, Jizzax politexnika instituti Xorijiy tillar kafedrasi katta o‘qituvchisi
e-mail: umida3029@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada tilshunoslar, izlanuvchilar va soha mutaxassislari uchun zaruriy ma’lumotlarni o‘z ichiga oluvchi insonning ijtimoiy-madaniy turmushning subyekti sifatida ishtiroki, lisoniy shaxs tushunchasi, uning komponentlari, ularni o‘rganishdagi yondashuvlar, mentalitet va mentallik haqidagi ilmiy qarashlarning muhokamasi haqida gap boradi.

Kalit so‘zlar: lisoniy shaxs, shaxs komponenti, mentalitet, mentallik, elitar, semiologik, konstant.

THE CONCEPT OF LINGUISTIC PERSONALITY

Abstract. This article contains the necessary information for linguists, researchers, and specialists in this field who study human participation as a subject of socio-cultural life, the concept of the linguistic personality, its components, approaches to their study, and the discussion of scientific views on mentality and mentality.

Key words: linguistic personality, personality component, mentality, mentality, elitist, semiological, constant.

ПОНЯТИЕ ЯЗЫКОВОЙ ЛИЧНОСТИ

Аннотация. В данной статье содержится необходимая информация для лингвистов, исследователей и специалистов в области участия человека как субъекта социокультурной жизни, понятия языковой личности, ее компонентов, подходов к их изучению, а также обсуждения научных взглядов на менталитет и менталитет.

Ключевые слова: языковая личность, личностный компонент, менталитет, менталитет, элитарный, семиологический, константный.

Kirish. Ma’lumki, madaniyatni inson yaratadi va unda inson, shaxs yashaydi. Aynan shaxs tushunchasida insonning tabiati birinchi o‘ringa ko‘tariladi, uning o‘zi esa, ijtimoiy-madaniy turmushning subyekti sifatida ishtirok etadi.

Lisoniy shaxs u yoki bu takrorlanish darajasida qo‘llaniladigan, mavhum sintaktik modellarni to‘ldiradigan ma’lum so‘zlar zahirasi bilan xarakterlanadi. Agar modellar aynan mana shu til kollektivi vakili uchun yetarli darajada xos bo‘lsa, so‘z boyligi va gapirish tarzi uning ma’lum bir sotsiumga tegishli ekanligini ko‘rsata oladi, o‘qimishlilik darajasi, xarakterining tipi haqida shohidlik bera oladi, jinsi va

yoshidan dalolat beradi va h. O‘nlab ijtimoiy rollarni bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan bunday shaxsning til repertuari jamoada qabul qilingan til etiketini hisobga olgan holda o‘zlashtirilgan bo‘lishi kerak.

Lisoniy shaxs mazmuniga ko‘pincha quyidagi komponentlar kiradi:

– tarbiya tarkibining qadriyatli, dunyoqarashga oid komponenti, ya’ni qadriyatlar yoki hayotiy mazmun tizimi. Til shaxsning borliqqa dastlabki va teran qarashini ta’minlaydi, til milliy xarakterni shakllantirish asosida yotgan va tilning dialogik aloqasida amalga oshiriladigan aynan o‘sha til obrazini va ma’naviy tasavvurlari ketma-ketligini yuzaga keltiradi;

– madaniyatshunoslik komponenti, ya’ni tilga qiziqishni oshirishning samarali vositasi bo‘lgan madaniyatning o‘zlashtirilishi darajasi. O‘rganilayotgan til madaniyatining nutq va nutqdan tashqari muomalaga bog‘liq bo‘lgan fakt (dalil)larning jalb etilishi aynan bir xil qo‘llash malakalarini shakllantirishga va muloqotdagi suhbatdoshga samarali ta’sir ko‘rsatishga ko‘maklashadi.[1,45-46-b]
shaxs komponenti, ya’ni individual, har bir insonda mavjud bo‘lgan komponent.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O‘rganilayotgan mavzu yuzasidan olib borilgan ishlar juda ko‘p. Jumladan, dunyo olimlaridan A. I. Alexina, I .V. Arnold, N. N. Amosova, V. V. Vinogradov, S. G. Gavrin, V. N. Vakurov, R. S. Ginzburg kabilar shunday tilshunoslar qatorida turishadi. Yurtimiz tilshunos olimlari ham bu sohada keng ko‘lamli izlanishlar olib borishgan. Ular orasida A. E. Mamatov, F. Abdullayev, A. Abduazizov, A. Sodiqov, N. Bashakov, D. Buranovlarni ajratib ko‘rsatishimiz mumkin. Lisoniy shaxs parametrlari endigina ishlab chiqila boshlandi.

Lisoniy shaxsga murojaat nemis olimi I. Veysgerber nomi bilan bog‘liq. Rus tilshunosligida bu mavzuni birinchi bo‘lib lisoniy shaxsni o‘rganishning ikkita, ya’ni muallif shaxsi va personaj shaxsini o‘rganish yo‘lini V.V. Vinogradov ishlab chiqqan. Keng ilmiy muomalaga esa bu tushunchani Yu. N. Karaulov olib kirdi, uning fikricha, lisoniy shaxs bu til tuzilishi jihatidan, haqiqatni ifodalashning aniqligi va teranligi, ma’lum maqsadga yo‘naltirilganligi bilan farqlanadigan matnlarni tuza oladigan va anglay oladigan kishidir.[18, 23-b.]

Tadqiqot metodologiyasi. Lisoniy shaxs tilda aks ettirilgan madaniyat makonida ijtimoiy ong shakllarida turli bosqichlarda (ilmiy, turmush va h.k.), yurishturish tarzida va normalarida, moddiy madaniyat materiallarida namoyon bo‘ladi. Madaniyatda belgilovchi rol millatning qadriyatlariga tegishlidir. Madaniy qadriyatlar shunday tizimki, unda hammabop va individual, asosiy va qo‘shimcha mazmunlarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Masalan, barcha madaniyatlarda insonning ochko‘zlik, qo‘rqoqlik, kattalarni hurmat qilmaslik, dangasalik va shu kabi illatlari qoralanadi, ammo har bir madaniyatda bu illatlar turli ko‘rinishlarga egadir.

Bugungi kunda tilning tilshunoslikda mavjudlik maqomini belgilab beradigan lisoniy shaxsini o‘rganishga tegishli turli yondashuvlar mavjud: elitar lisoniy shaxs, semiologik shaxs, til va nutq shaxsi, emotsional lisoniy shaxs, g‘arb va sharq madaniyatlari lisoniy shaxsi, rus yoki o‘zbek lisoniy shaxsi. Lisoniy shaxsning boshqa konsepsiyalari ham mavjud. Masalan, ular quyidagi komponentlarni tashkil qiladi:

– gapiruvchi inson - faoliyatlaridan biri nutq faoliyati bo‘lgan shaxs;

– lisoniy shaxs – o‘zini nutq faoliyatida namoyon qiluvchi, ma’lum bilimlar va tasavvurlar majmuasiga ega bo‘lgan shaxs;

– nutq shaxsi – fikr almashinishida o‘zini namoyon qiladigan, munosabatning u yoki bu strategiyasi yoki taktikasini, vositalar repertuarini tanlaydigan va amalga oshiradigan shaxs;

– kommunikativ shaxs – real kommunikatsiyada ishtirok etuvchi aniq kommunikativ harakat ishtirokchisi.

Mazkur ishda biz lisoniy shaxsning ikkita tarkibi – aynan lisoniy va kommunikativ qismini ko‘rib chiqamiz.

Shunday qilib, lisoniy shaxs – o‘ziga xos jihatlarni jam qilgan ijtimoiy hodisa. Lisoniy shaxsda o‘ziga xoslik tilga ichki munosabat orqali, shaxsga oid til jihatlarning vujudga kelishi orqali shakllanadi, ammo bunda shuni unutmaslik lozimki, lisoniy shaxs til an’analarining vujudga kelishiga ta’sir ko‘rsatadi. Lingvomadaniyatshunoslikda shaxsning nutq madaniyati “mentalitet” va “mentallik” tushunchalari bilan uzviy bog‘langan. Bu terminlar ijtimoiy va gumanitar fanlarda faol ilmiy atama sifatida qo‘llanilmoqda. Shu bilan bir vaqtda bu terminlarning mazmuniy noaniqligi va nomukammalligi sotsiologik tadqiqotlarda ulardan samarali foydalanish imkonini bermaydi. Kerak bo‘lgan barcha hollarda, masalan, katta ijtimoiy o‘zgarishlar yuz bergan paytda millatlararo farqlarni tushuntirishda, hozirgi jamiyatda bozor islohotlarini amalga oshirishdagi yutuq va muvaffaqiyatsizliklarning sabablarini tushuntirishda bu terminlar yordamiga murojaat qilinadi. Mentalitet va mentallik so‘zlariga murojaat qilish shu daraja tez-tez takrorlanib turadiki, ba’zida mualliflar qo‘llanilayotgan tushunchalaming metodologik tadbiq qilinganlik va asoslanganlik darajasi haqida hatto o‘ylab ko‘rmaydilar.[3, 52-b.]

Ayrim olimlar shundan kelib chiqadilarki, mentallik konstantlarini – o‘zlarining ongiga madaniyat, til, din, tarbiya, ijtimoiy munosabat orqali kiritilgan o‘zgarmas asosiy tasavvurlarni o‘z ichiga oladi, - degan xulosadan kelib chiqadilar. Bu holda taraqqiyotning o‘tish davrida kishilarning tanlashiga ta’sir ko‘rsatadigan mentallik omil sifatida hamda ochiq va o‘zgaruvchi tarixda tanlash sharoitida harakat qilayotgan tarixiy shaxsning o‘zini o‘zi belgilash mexanizmini ochib beruvchi hodisa sifatida paydo bo‘ladi.[18, 22-b.]

Shunday bo‘lsa ham, mentalitet aynan individual va jamoa (kollektiv) ongining mustahkam tarkibi sifatida qoladiki, uning yordamida individlar yangiliklarga qarshilik ko‘rsatadilar va ayni vaqtda o‘zgarayotgan sharoitlarga va talablarga ko‘nikadilar. Shuning uchun ham mentalitet va mentallik ta’rifiga aniqliklar kiritish lozim (XIX asrda “lisoniy ong” (ruh) yoki “millat ongi” (ruhi) tushunchasi “mentalitet” termini bilan almashtirilgan edi). U xulq-atvorda, noto‘g‘ri tushunchada, fikrlash tarzida ifodalanadi. Butunlay umumiy ko‘rinishda mentalitet fikrlash turi, aql tuzilishi bo‘lib, u bilish, emotsional, irodaga oid jarayonlarda va xulq-atvor xarakterida namoyon bo‘ladi.

Mentallik kundalik, xuddi asliday takrorlanuvchi, odatdagi turmush tarzining va faoliyatning saqlab qolish usuli bo‘lib, u ruhiy holat emas, balki ijtimoiy-madaniy hodisa, modomiki, uning elementlari timsollar, madaniyatning kodlari, predmetlaming buyum shakli va faoliyatning tayyor uslublari, ya’ni amaliy xulq-atvorning ijtimoiy-madaniy maydondagi o‘ziga xos shakllari sifatida berilgan.

Mentalitet mentallikning yo‘lga qo‘yilganligini va o‘rab turgan olamga nisbatan bir qolipdagi munosabatni ifodalaydi. Mentallikning shakllariga ushbu umumiylikka xos bo‘lgan xulq-atvorin ing tayyor qolipi – kollektiv tasavvurlar, o‘rab turgan olamni baholash va o‘zlashtirishni tushuntirib berishda namoyon bo‘ladigan intellektual ta’sirlar kiradi.

O‘z vazifalariga ko‘ra ijtimoiy tasavvurlar guruh mentalitetining ijtimoiy-psixologik va madaniy barqarorligini ta’minlaydi va bilish vositasi vazifasini bajaradi. Odamlar o‘z tasavvurlarini tushuntirib, ularni asoslab, o‘zlari yaratadilar. Ammo ma’lumotni ham qo‘shib hisoblaganda voqelik, sodir bo‘layotgan narsalarning realligi haqidagi savolga javob berishning mezoni bo‘lib xizmat qiladigan tasavvurlar asosida tuziladi. Voqelik o‘zgarib ketadi, chunki inson uni o‘z xohishlari, manfaatlari va tasavvurlari ta’siri ostida ko‘radi. Ijtimoiy tasavvurlar xulq-atvorning vositachisidir. Shunday qilib, ular o‘z xulq-atvorni shakllantiradilar va ijtimoiy aloqalarni yo‘naltiradilar.

Tahlil va natijalar. Shunday qilib, mentalitet va mentallik – inson ongining, tasavvurining, munosabati va harakatining ko‘p o‘lchovli fenomenlari bo‘lib, ular turli nuqtai nazarlardan ta’riflanishi mumkin. Mentalitetning ilmiy manzarasi diskursiv tahlil va turli guruhlarning mentalligi o‘zini namoyon qiladigan va ko‘rinishini o‘zgartiradigan, ayni paytda o‘zining dastlabki tavsifini saqlab qoladigan amaliyotlar doirasining tahlili bilan chambarchas bog‘langan.

Sotsiologik tadqiqotlar, aslini olganda, turli guruhlarning kundalik amaliyotidagi ma’lum mentalligini fanlararo tasvirlashdan, tushuntirishdan va talqin qilishdan iboratdir.

Ilgari ta’kidlanganidek, til yordamida biz borliqni gavdalantiramiz. Nafaqat tasvirlaymiz, balki aynan gavdalantiramiz, chunki tasvirlash borliqni ifodalashning shakllaridan biridir. Masalalar, xohishlar barcha nutq faoliyatlari kabi borliqning aks ettirilishi yoki tasavvurlari shakllaridir. Tilni uch xil tushunish mumkin: til sifatida – tizimni; til sifatida – faoliyatni yoki nutqni; tilning birligi sifatida – tizimlar tilini va faoliyat yoki nutqning tilini. Bundan buyon biz tilni tizim tili va faoliyat tili birligi sifatida til deb belgilaymiz, faoliyat tili ma’nosida – nutq deb belgilaymiz.

Olamning lisoniy manzarasini tilda fikrlash deb qarash mumkin, chunki, birinchidan, olamning manzarasi oddiygina suratga olish emas – bu fahmlash yoki taqlid qilishdir; ikkinchidan, ko‘rib chiqilayotgan (muhokama qilinayotgan) tasavvur yoki in’ikos tovushli xarakterga ega, ya’ni u amalga oshiriladi va til shaklida mavjud bo‘ladi.

Nutqiy tafakkur borliqning nutqiy tasavvuridir. Nutqiy tafakkur olamning konseptual va yoki fokusli bo‘linishidir, nutqiy bo‘linish esa uning vaziyatdan kelib chiqqan bo‘linishidir. Nutqiy mentallik – bu nutqiy tafakkur usuli, ya’ni borliqni nutqiy tasavvur qilish, borliq va uning nutqiy ko‘rinishi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanishi yoki obrazi nutqiy ko‘rinishining usulidir.

Til mentalligi til tafakkuri bilan chambarchas bog‘langan. Bundan tashqari, bu ta’rifdan shu narsa kelib chiqadiki, u til tafakkurining eng muhim aspekti. Til mentalligining ikki tipini – leksik va grammatik mentallikni ajratib ko‘rsatish mumkin. Leksik tipdagi til mentalligi leksik-semantik tizimda o‘z ifodasini topadi.

Grammatik tipdagi til mentalligining o‘ziga xos xususiyati borliqni lokal, temporal va boshqa ko‘rinishlari orqali aniqlaydi. Borliqni his qilishning bu fokuslari birinchi navbatda zamonlarning grammatik tizimlari, son kategoriyasi, rod kategoriyasi va boshqalarda mustahkamlangan. Shunday qilib, borliqni his qilishning ijtimoiy-madaniy stereotiplari til mentalligini shakllantiradi, unda ma’lum shaklga kiradi. Shubhasiz, bunda til omillari ma’lum rol o‘ynaydi, til mentalligi ularning ta’siriga nutq mentalligiga qaraganda ancha ko‘p darajada moyil bo‘ladi, ammo bu moyillik ijtimoiy-madaniy omillarning roliga qaraganda uncha ahamiyatsizdir.

Nutq mentalligida ijtimoiy-madaniy omillar turli kombinatsiyalarni tashkil qiluvchi o‘ziga xos filtr (tozalovchi) rolida namoyon bo‘ladi. Borliqning aynan bir qismini shu filtr orqali o‘tkazib, biz olamning turlicha tasavvurini yoki uning aksini olamiz. Faraz qilish mumkinki, eng katta farqlar til sohasidagi mentallikda emas, balki nutq sohasidagi mentallikda ko‘zga tashlanadi. Sezilarli darajada o‘zgaruvchan bo‘lgan ijtimoiy-madaniy omillar til mentalligining yetakchi determinantlari (ifodalovchilari, izohlovchilari) bo‘lganligi sababli, demak, shundan kelib chiqib, til mentalligi ham o‘zgaruvchandir. Shu bilan birga, u nutq mentalligiga qaraganda ko‘p darajada konservativdir.

Xulosa va takliflar. Ta’kidlash joizki, til va nutq mentalligining har xil aspektlari turli darajada o‘zgarishlarga uchragan. Bundan kelib chiqadiki, nutq mentalligining ayrim aspektlariga qaraganda ko‘proq o‘zgaruvchan bo‘lgan til mentalligining bunday aspektlari mavjud bo‘lishi mumkin. Birinchi navbatda til mentalligi til omillaridan emas, balki ijtimoiy-madaniy omillar orqali ifodalanishidan kelib chiqib, shunday xulosa qilish mumkinki, mentallikning tiplarini til xususiyatlari asosida emas, balki ijtimoiy-madaniy xususiyatlar asosida ajratish kerak. Garchi ko‘p hollarda ijtimoiy-madaniy omillar alomatlarining ma’lum to‘plami aniq bir til bilan bog‘langan bo‘lishiga qaramasdan, til mentalligi tiplarini aynan mana shu xususiyatlariga qarab ajratib ko‘rsatish zarur. Shuning uchun rus, ingliz, fransuz yoki boshqa mentalliklar haqida gap yuritganda, tillar bilan emas, balki tegishli ijtimoiy-madaniy birliklar bilan munosabatdosh bo‘lgan mentallikni ko‘zda tutmoq lozim. Til mentalligi “lisoniy shaxs” tushunchasi va uning ijtimoiy mavqeini hisobga olgan holda lisoniy shaxsning ta’rifi bilan uzviy bog‘langan.

Shunday qilib, “shaxs” konsepti juda ko‘p ijtimoiy fanlar: psixologiya, falsafa, sotsiologiya, estetika, ekologiya va boshqa antropologik yo‘nalishlaming tadqiqot obyekti hisoblanadi. Psixologiyada shaxs individ tarzida, ijtimoiy ta’sir subyekti, ijtimoiy munosabatlar va mental anglangan faoliyat tarzida qaraladi. Shaxs ijtimoiy davomiylik sohasi bo‘yicha tadqiq qilinadi. Falsafada bo‘lsa u ma’naviy, o‘z turmushida tarkibi belgilangan va ijodiy harakatlar yordamida rivojlanuvchi shaxs sifatida qaraladi. “Shaxs” termini o‘zaro hamkor fanlar (psixolingvistika, etnolingvistika, lingvomadaniyatshunoslik) tomonidan o‘zlashtirib olinadi va fanlararo yo‘nalishlaming obyekti sifatida ikki fan sohasining tutashuvida tadqiq qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduazizov A., Sodiqov A., Bashakov N. Umumiy tilshunoslik – Toshkent, 1979.

2. Abdullayev F. O‘zbek tili leksikasining ba’zi bir masalalariga doir til va adabiyot instituti asarlari. – Toshkent: Fan, 1949.
3. Buranov D. A practical course in English lexicology. – Toshkent, 1990.
4. Ginzburg R.S. A course in modern English lexicology. – Moskva, 1979.
5. Murodova Umida. “Linguistic and Cultural Features of Alternative Phrases in English and Uzbek Languages”. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences 7 (2022): 106-111.
6. Murodova U. A. (2021). Linguacultural characteristics of english phraseological units and phrasemes borrowed from different languages. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 2021(06), 173-186.
7. Авашани Ю. Ю, Эмирова А. М. К семантический структуре фразеологических единиц. 1971. – С. 245
8. Авашани Ю. Ю. Вопросы фразеологии. 1977. – С. 143.
9. Алехина А.И. Идиоматика современного английсково языка. – Москва, 1982.
10. Алехина А.И. Семантические группы во фразеологии современного английского языка. – Москва, 1977.
11. Алехина А.И. Фразеологическая единица и слово. – Москва, 1979.
12. Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии. – Л., 1963.
13. Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка. – Москва, 1969.
14. Вакуров В.Н. Основы стилистики фразеологических единиц. – Москва, 1983.
15. Виноградов В.В. Лексикологии и лексикография. – Москва, 1977.
16. Гаврин С. Г. Вопросы лексики, фразеологии и синтаксиса. – Перль, 1974.
17. Гулямов А.Г. Основные способы словообразования в узбекском языке. – Тошкент, 1955.
18. Mamatov A. E. Zamonaviy lingvistika. – Toshkent, “Noshir”, 2019.
1. https://www.springernature.com/gp
2. https://tetw.org/Linguistics
3. https://www.dissertation-help.co.uk/linguistics-dissertation-topics/
4. https://www.dissertations.se/about/Linguistics/
5. https://scholarsarchive.byu.edu/linguistics_etd/